

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil).– 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Turayev Ruhiddin, Safayev Sanjarbek

YER TUZISH LOYIHALARINI YURITISHDA YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZILADIGAN YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	5-9
--	-----

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU ALI IBN SINO –ILM FAN OSMONINING YULDUZ	10-13
---	-------

Muminov Azizbek

ILMIY TADQIQOT HAMDA GEOSIYOSIY MANFAATLAR O'RTASIDA: TURKISTONDAGI XORIJIY ILMIY EKSPEDITSİYALAR VA MUSTAMLAKACHILIK JARAYONLARI	14-17
---	-------

Darmenov Rustem

HIND-ERON DINIY AN'ANALARI KONTEKSTIDA CHIRIKRABOT MADANIYATINING DAFN MAROSIMI	18-19
---	-------

IQTISODIYOT FANLARI

Xushvaqto'v Jasur

O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI OMMAVIY BAHOLASH VA PROGNOZLASH MUAMMOLARI	20-25
---	-------

FILOLOGIYA FANLARI

Madiraimova Moxlaroyim

CONSONANT CLUSTERS IN ENGLISH AND THEIR ABSENCE IN UZBEK: CHALLENGES FOR LEARNERS	26-30
---	-------

Xaitbayeva Moxira

COMPARATIVE STUDY OF WORD ORDER IN UZBEK AND ENGLISH SPEECH STRUCTURE	31-34
---	-------

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

НЕДОПУСТИМЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В СТАДИИ ДОЗНАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ИХ ОСМЫСЛЕНИЕ	35-38
---	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

Ganiyev Elyorbek

HUQUQIY KOMPETENTLIKNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	39-44
---	-------

Xabibullayev Alimardon

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA QO'SHMA TA'LIM DASTURLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI	45-50
--	-------

Abdullayeva Asila

FALSAFIY KONSEPTLARNI O'ZBEKISTON TARIXINING PEDAGOGIK MATERIALLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH	51-56
--	-------

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMNING LOYIHASI	57-59
---	-------

Yuldasheva Maftuna

O'QITUVCHILARNING KORREKTSION FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BAHOLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	60-65
--	-------

<i>Samandarova Nargiza</i> IQTISODCHI MUTAXASSIS TAYYORLASHDA TIL VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI MASALALARI	66-69
<i>Raxmanova Nigora</i> SHARQ UYG'ONISH PEDAGOGIKASINI ZAMONAVIY TA'LIM SIYOSATI VA STRATEGIYASIGA INTEGRATSIYA QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	70-75
<i>Kamolov Baxtiyor</i> EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARIDA EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	76-82
<i>Mavlonova Dildora</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI: TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ILMIY-METODOLOGIK TAHLIL	83-85
<i>Tojiboyeva Shohistaxon</i> AXBOROT MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI UCHUN TANQIDIY FIKRNI SHAKLLANTIRUVCHI ENG SAMARALI INTERFAOL METODLAR	86-89

IQTISODIYOT FANLAR

O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI OMMAVIY BAHOLASH VA PROGNOZLASH MUAMMOLARI

Xushvaqto'v Jasur Shuhrat o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: xjasur@tersu.uz

Tel: +998 (99)-876-10-97

ORCID ID: [0009-0009-0666-1313](https://orcid.org/0009-0009-0666-1313)

Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur ishda O'zbekistonda ko'chmas mulk obyektlarini ommaviy baholash va prognozlash tizimini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy muammolari tahlil qilingan. Ommaviy baholashning qiyosiy, daromad va xarajat yondashuvlari, ularning afzallik va cheklovlari qiyosiy jihatdan yoritilgan. Bozorni modellashtirishda additiv, multiplikativ, gibrid va evristik modellar, shuningdek, sun'iy neyron tarmoqlar asosidagi prognozlash usullaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda kadastr ma'lumotlar bazasining to'liqligi, narx axborotlarining ishonchliligi, chiziqli bo'lmagan bog'liqliklar va ma'lumotlardagi shovqin omillari asosiy muammo sifatida asoslangan. O'zbekistonda ommaviy baholash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish sharoitida ma'lumotlar sifatini oshirish, ekonometrik va mashinali o'rganish modellarini integratsiyalash hamda indeksatsiya mexanizmini qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk, ommaviy baholash, prognozlash, kadastr qiymati, bozor qiymati, ekonometrik modellar, gibrid model, qiyosiy yondashuv, daromad yondashuvi, xarajat yondashuvi, sun'iy neyron tarmoqlari, indeksatsiya, soliqqa tortish.

PROBLEMS OF MASS VALUATION AND FORECASTING OF REAL ESTATE OBJECTS IN UZBEKISTAN

Khushvaktov Jasur Shukhrat ugli

Independent Researcher, Termez State University

Annotation. This paper analyzes the theoretical and methodological foundations, as well as the practical problems, of introducing a mass valuation and forecasting system for real estate objects in Uzbekistan. The sales comparison, income, and cost approaches to mass valuation, along with their advantages and limitations, are comparatively elucidated. The study examines the possibilities of using additive, multiplicative, hybrid, and heuristic models in market modeling, alongside forecasting methods based on artificial neural networks. The research substantiates that the completeness of the cadastral database, the reliability of price information, non-linear dependencies, and noise factors in the data constitute the primary challenges. Proposals have been developed for improving data quality, integrating econometric and machine learning models, and applying an indexation mechanism within the context of the gradual implementation of the mass valuation system in Uzbekistan.

Key words: real estate, mass valuation, forecasting, cadastral value, market value, econometric models, hybrid model, sales comparison approach, income approach, cost approach, artificial neural networks, indexation, taxation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i4/n05>

Zamonaviy bozor sharoitida ko'chmas mulk qiymatini aniqlash iqtisodiy bilimlar, statistik usullar va ilg'or axborot texnologiyalari sintezini talab qiladigan murakkab ko'p faktorli vazifadir. Global miqyosda ko'chmas mulk milliy boylikning fundamental qismi bo'lib,

dunyo kapitalining 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Shu munosabat bilan, ommaviy baholash tizimlarini rivojlantirish samarali soliqqa tortish, ipoteka kreditlashini kengaytirish va investitsiya muhitining shaffofligini ta'minlashning majburiy shartiga aylanmoqda.

Ommaviy baholash – bu ko'chmas mulk obyekti guruhlarining ma'lum bir sanadagi qiymatini standart usullar va umumiy ma'lumotlar to'plami yordamida tizimli aniqlash jarayoni bo'lib, u bir vaqtning o'zida ko'plab obyektlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi. Muayyan obyektning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadigan individual baholashdan farqli o'laroq, ommaviy baholash matematik modellar va statistik qonuniyatlarga tayanadi hamda natijalarning bir xilligini ta'minlashga intiladi.

Baholash tartibining metodologik ta'minoti obyekt qiymati va narx belgilovchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni modellashtirishga asoslanadi. Ushbu bog'liqliklar matematik tenglamalar shaklida ifodalanadi va natijalarning ishonchliligi bozor ma'lumotlarining sifatiga bog'liq. Klassik nazariya doirasida uchta asosiy yondashuv ajratib ko'rsatiladi:

Qiyosiy yondashuv eng obyektiv usul hisoblanadi, chunki u bozordagi sotuvchi va xaridorlarning haqiqiy xatti-harakatlarini aks ettiradi. Bunda asosiy vosita sotuvlarni solishtirish usuli bo'lib, baholanayotgan obyektning qiymati o'xshash obyektlar bilan tuzilgan bitimlar asosida chiqariladi.

Ommaviy baholashda bozor mexanizmi bino xususiyatlari va joylashuvidagi farqlar uchun tuzatmalar kiritish orqali modellashtiriladi. Biroq, ushbu usulni qo'llash bitimlarning haqiqiy narxlari to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligiga bog'liq. Bozor yopiq bo'lgan yoki noyob obyektlar baholanayotgan hollarda ushbu yondashuv sezilarli xatoliklarni berishi mumkin.

Daromad yondashuvi kutilish tamoyiliga asoslanadi va obyekt qiymatini uning kelajakda keltirishi mumkin bo'lgan pul oqimlarining joriy qiymati sifatida belgilaydi. Ushbu usul ofis markazlari, savdo maydonchalari va ijaraga beriladigan uy-joylar kabi tijorat ko'chmas mulki uchun ustuvor hisoblanadi.

Bu yerda asosiy muammo diskontlash stavkasini aniqlashdir. Beqaror iqtisodiyot yoki bozor munosabatlari shakllanayotgan bosqichda ushbu stavkani hisoblash yuqori darajadagi noaniqlik bilan bog'liq. Bundan tashqari, usul daromad keltirishga mo'ljallanmagan obyektlar uchun qo'llanilmaydi.

Xarajat yondashuvi almashtirish tamoyiliga asoslanadi, unga ko'ra oqilona xaridor obyekt uchun unga o'xshash binoni qurish va yer uchastkasini sotib olish xarajatlaridan ortiq pul to'lamaydi. Ushbu yondashuv an'anaviy ravishda inventarizatsiya qiymatini aniqlash va soliq bazasini hisoblashda qo'llanilgan.

Bugungi kunda xarajat yondashuvi asosan bozor rivojlanmagan, obyekt noyob bo'lgan yoki boshqa yondashuvlarni qo'llash uchun ma'lumotlar yetarli bo'lmagan hollarda ishlatiladi. Usulning asosiy kamchiligi – jamlangan eskirish miqdorini aniq belgilashning qiyinligi va yer uchastkasini alohida baholash zarurligidir.

1-jadval.

Baholash yondashuvlarining qiyosiy tavsifi¹.

Xususiyati	Daromad yondashuvi	Xarajat yondashuvi	Qiyosiy yondashuvi
-------------------	---------------------------	---------------------------	---------------------------

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

Asosi	Kutilayotgan daromadlarning joriy qiymati	Tiklash/almashtirish xarajatlari (eskirishni hisobga olgan holda)	Yaqinda amalga oshirilgan bitimlar narxlari bilan solishtirish
Qo'llanilishi	Daromad keltiruvchi tijorat ko'chmas mulki	Maxsus maqsadli obyektlar, bozor mavjud bo'lmagan hollar	Tipik uy-joylar, rivojlangan hududlar
Afzalliklari	Bozor kutilmalari va investitsiya xatarlarini hisobga olish	Sug'urta va soliqqa tortish maqsadlari uchun baholash	Bozor ishtirokchilarining fikrini aks ettirish
Kamchiliklari	Daromadlilik prognozlarining subyektivligi	Eski binolarni hisoblashning murakkabligi	Bozor faolligi va shaffofligiga bog'liqlik

Bozorni modellashtirish uning matematik tavsifi bo'lib, bunda real oldi-sotdi jarayonlari mavhum modellar bilan almashtiriladi. Ommaviy baholash amaliyotida to'rtta asosiy statistik model turi ajratiladi:

1. Additiv model obyektning har bir xususiyati yakuniy qiymatga mustaqil ravishda hissa qo'shadi deb hisoblanadi:

$$Y = A_0 + A_1X_1 + A_2X_2 + \dots + A_nX_n, \quad (1)$$

2. Multiplikativ model obyekt xususiyatlarining qiymatga ta'siri proporsional ekanligini aks ettiradi:

$$Y = B_0 \cdot X_1^{B_1} \cdot X_2^{B_2} \cdot \dots \cdot X_n^{B_n}, \quad (2)$$

Bunday modellar chiziqli bo'lmagan bog'liqliklarni yaxshiroq tasvirlaydi.

3. Gibril model additiv va multiplikativ elementlarni birlashtiradi, biroq ularni kalibrlash ancha murakkab.

Gibril model yuqorida keltirilgan ikki turdagi modellarning kombinatsiyasi bo'lib, matematik ko'rinishi quyidagicha:

$$Y = Z_1^{B_1} \cdot Z_2^{B_2} \cdot \dots \cdot Z_m^{B_m} (A_0 + A_1Z_{m+1} + \dots + A_mZ_m), \quad (3)$$

Mazkur model turi bozorning asosiy tendensiyalarini yetarlicha adekvat aks ettirish imkonini beradi, ammo koeffitsiyentlarni kalibrlash (moslashtirish) jarayonini murakkablashtiradi.

4. Evristik model ekspert bilimlari va bozorning sifat tahliliga asoslanadi. U statistik ma'lumotlar yetishmagan hollarda qo'llaniladi.

Ko'chmas mulk bozori kibernetika tamoyillari asosida ishlaydigan murakkab o'z-o'zini tartibga soluvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi. G.M. Sternik konsepsiyasiga ko'ra, bozor teskari aloqa mexanizmlariga ega bo'lib, ular tizimni muvozanat holatiga qaytarishga intiladi.

Prognoz modellarini qurish uchun bozordagi drayverlarni aniqlash zarur.

2-jadval.

Narx shakllanishiga ta'sir qiluvchi talab va taklif omillari¹.

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Talab omili	Narxga ta'sir qilish mexanizmi
To'lov qobiliyati	Aholi daromadlari va uy-joy kreditlash hajmiga bog'liq
Pul massasi (M2)	Iqtisodiyotda likvidlikning oshishi nominal narxlar o'sishiga yordam beradi
Narx kutilmalari	Chayqovchilikka moyillik qisqa muddatda narxlar o'sishini tezlashtiradi
Ipoteka shartlari	Foiz stavkalarining pasayishi potensial xaridorlar doirasini kengaytiradi

Ommaviy baholashning eng dolzarb muammolaridan biri – bog'liqliklarning chiziqli emasligi va ma'lumotlardagi “shovqinlar”dir. An'anaviy statistik usullar bozor konyunkturasi keskin o'zgarganda samarasiz bo'lishi mumkin. Istiqbolli muqobil sifatida sun'iy neyron tarmoqlari apparatidan foydalanish taklif etiladi.

Sun'iy neyron tarmoqlari yordamida modellashtirish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha sigmoid faollashtirish funksiyasiga ega ko'p qatlamli perseptronlar qo'llaniladi:

$$y_i = \frac{1}{1 + e^{-s_i}}, \quad (4)$$

Neyron tarmoqlarning asosiy kamchiligi ularning “tushunarsizligi” (qora quti effekti) bo'lib qolmoqda, ya'ni tarmoq nima uchun aynan shunday natija berganini tushuntirish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi ko'chmas mulkni baholash va soliqqa tortish tizimini transformatsiya qilishning faol bosqichiga kirdi. Bu boradagi asosiy hujjat – Prezidentning 2025-yil 5-martdagi “Ko'chmas mulk obyektlarini ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-43-sonli Farmonidir. Islohotdan maqsad – statik kadastr qiymatidan bozor ko'rsatkichlariga yaqin bo'lgan dinamik qiymatga o'tishdir. Bu quyidagilar uchun zarur:

8 milliondan ortiq bino va 7 millionga yaqin yer uchastkasini to'laqonli iqtisodiy aktiv sifatida tan olish;

soliqqa tortishda adolatni ta'minlash va obyektlarni garovga qo'yish yoki davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yishda nizolarni kamaytirish.

Islohot bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

2025-2026 yillar – Toshkent shahrida tajriba o'tkazish;

2026-2027 yillar – Nukus shahri va viloyat markazlarida tizimni kengaytirish;

2027-yildan – Respublikaning barcha hududlarini qamrab olish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Kadastr agentligi huzurida Ko'chmas mulk obyektlarini ommaviy baholash milliy markazi tashkil etilmoqda.

O'zbekistonda zamonaviy baholash usullarini joriy etish yo'lidagi asosiy to'siq mavjud axborot tizimlarining sifati va to'liqligi hisoblanadi. Kadastr agentligi bazasida ekonometrik modellashtirish uchun zarur bo'lgan bir qator muhim ko'rsatkichlar yetishmaydi.

Yetishmayotgan xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

obyekt qurilgan yili – busiz binoning jismoniy eskirishini hisoblab bo'lmaydi;

devor va yopmalar materiali – bu omil binoning tannarxi va mustahkamligiga bevosita ta'sir qiladi;

qavatlar soni va shift balandligi – uy-joyning qulaylik darajasini belgilovchi texnik parametrlar;

funksional tayinlovi – tasniflarning noaniqligi bozor segmentatsiyasini qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, shartnomalarda narxlarni sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatish muammosi saqlanib qolmoqda. 2025-yilning birinchi yarmi ma'lumotlariga ko'ra, minglab holatlarda Toshkentda kvadrat metr narxi 1-3 mln so'm deb ko'rsatilgan, bu esa bozor narxidan bir necha barobar pastdir. Shu sababli, minimal narxlarni belgilash mexanizmlari taklif etilmoqda (Toshkentda 1 kv.m uchun 3 300 000 so'mdan kam bo'lmagan chegara).

O'zbekiston ko'chmas mulk bozori yuqori faollik bilan bir qatorda narxlarning barqarorlashuvi bilan xarakterlanadi. 2025-yilda uy-joy oldi-sotdi bitimlari soni 15% ga oshib, 295 mingtaga yetdi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, uy-joyning fundamental va bozor qiymati o'rtasidagi farq 2024-yildagi 17% dan 2025-yilning ikkinchi choragida 4% gacha qisqardi. Bu narxlar chayqovchilik bosimidan xalos bo'layotganidan dalolat beradi.

3-jadval.

Toshkent shahri ko'chmas mulk bozori ko'rsatkichlari (2025-yil sentyabr holatiga)¹

Ko'rsatkich	Birlamchi bozor	Ikkilamchi bozor
Narxlar o'sishi (so'mda)	+2.4% (yilga nisbatan)	+1.8% (yilga nisbatan)
Narxlar o'sishi (dollarda)	+5.5% (yilga nisbatan)	+5.0% (yilga nisbatan)
1 kv. m uchun o'rtacha narx (ikkilamchi)	–	\$1,075 – \$1,100
O'rtacha ijara haqi (1 kv. m uchun)	–	\$8.1 – \$8.8

Uy-joy sotib olish imkoniyati indeksi 121% ga yetdi, bu aholi real daromadlarining o'sishi va ipoteka muddatlarining uzaytirilishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda ko'chmas mulk qiymatini prognoz qilish modellari qisqa muddatli tebranishlarni ham, uzoq muddatli tarkibiy o'zgarishlarni ham hisobga olishi kerak. Xalqaro moliya tashkilotlari prognozlariga ko'ra, 2025-2026 yillarda YaIM o'sishi qariyb 6% ni tashkil etadi, bu esa uy-joyga bo'lgan yuqori talabni qo'llab-quvvatlaydi.

Biroq, quyidagi xatarlarni hisobga olish lozim:

1. Demografik omil – aholi o'sayotgan bo'lsa-da, tug'ilish sur'ati pasaya boshladi, bu uzoq muddatda talabning susayishiga olib kelishi mumkin;

2. Ipotekaga bog'liqlik – kreditlash shartlarining qattiqlashishi bozordagi faollikning keskin tushishiga sabab bo'lishi mumkin;

3. Inflyatsiya va qurilish xarajatlari – sement 60% ga va metall 30% ga narxlarining oshishi quruvchilarning marjasiga bosim o'tkazmoqda.

To'liq qayta baholashlar oralig'ida kadastr qiymatini dolzarb saqlash uchun indeksatsiya mexanizmini joriy etish taklif qilinadi. Bu soliq to'lovchilar uchun narxlarning keskin sakrashidan qochish va soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ko'chmas mulkni ommaviy baholash muammosi nazariy munozaralardan amaliy bosqichga o'tmoqda. Toshkentdagi tajriba loyihasining

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

muvaffaqiyati davlat organlarining ma'lumotlar yopiqqligini bartaraf etish va binolarning texnik xususiyatlarini sifatli yig'ish qobiliyatiga bog'liq.

An'anaviy regressiya usullari neyron tarmoqlar va mashinali o'rganish algoritmlari bilan boyitilishi kerak, bu esa infratuzilmaning narxga ta'sirini aniqroq hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, baholash jarayonining shaffofligi va aholi uchun tushunarliyligi yangi tizimga bo'lgan ishonchning garovidir.

Ushbu chora-tadbirlar ko'chmas mulk bozorini iqtisodiyotning shaffof va bashorat qilinadigan sektoriga aylantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining, 2023-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 3487-raqamli buyrug'i.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 7-iyuldagi 269-son buyrug'iga ilova "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash uslubi"ni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-son Farmoni.
4. To'la'kov, U.T. (2025). Ko'chmas mulkni soliqqa tortish va ommaviy baholashda ekonometrik modellash. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(3), 807–847.
5. Алексене А., Багдонавичюс А. Организация системы оценки и управление ею в Литве: планирование и оценка необходимых ресурсов // Введение системы массовой оценки на основе рыночной стоимости для налогообложения недвижимого имущества: докл. междунар. конф. – Литва, 2003.
6. Артемьев А. А. Обсуждение проблем и перспектив введения в России налога на недвижимость // Ваш налоговый адвокат. – 2007. – №4. – С. 8–14.
7. Асаул А. Н., Иванов С. Н., Старовойтов М. К. Экономика недвижимости. – СПб.: АНО «ИПЭВ», 2009. – 304 с.
8. Безруков В. Б., Дмитриев М. Н., Пылаева А. В. Налогообложение и кадастровая оценка недвижимости: монография. – Н. Новгород: ННГАСУ, 2011. – 155 с.
9. Беляева А. В. Массовая оценка стоимости объектов недвижимости для целей налогообложения // Прикладная математика и вопросы управления. – 2015. – №2. – С.77–88.
10. Березин М. Ю. Региональные и местные налоги: правовые проблемы и экономические ориентиры. – М.: Волтерс Клувер, 2006. – 628 с.
11. Вессели Р. Опыт кадастровой оценки земель в России // Налоговая оценка недвижимости и развитие институтов имущественного налогообложения: докл. междунар. конф. – М., 2005.
12. Демидов А. В. Налоговое право России: учеб. пособие. – М.: РУМЦ, 2006. – 424 с.
13. Дударева С. Ю. Оценка будущей стоимости недвижимости в различных целях // Материалы межвуз. конф. – Краснодар, 2004. – С.157.
14. Елинский А. В. Из истории налогообложения зарубежных стран // Финансовое право.
15. Тарасевич Е. И. К вопросу определения ставки дисконтирования на рынке недвижимости России // Проблемы недвижимости. – 2000. – №2. – С.117–137.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil). – 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.